



Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences

Journal home page:
<http://ijournal.uz/index.php/jartes>



DETERMINATION OF EFFICIENCY INDICATORS OF COOPERATION OF JIZZAKH STATE PEDAGOGICAL INSTITUTE WITH SECONDARY SCHOOLS IN THE REGION

Baxromova Shahnoza Xolyigit qizi¹

Jizzakh State Pedagogical University

KEYWORDS

cooperation of schools and higher educational institutions, integration of educational and educational and scientific fields

ABSTRACT

The decree of the head of state dated November 6 this year “on measures for the development of education and science in the new development period of Uzbekistan” raised large-scale reforms in the field of education to a new level. This document is especially important in strengthening the cooperation of schools and higher educational institutions, further strengthening the integration between them.

2181-2675/© 2022 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: 10.5281/zenodo.7404485

This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

¹ Master's degree in theory and methodology of education and training (Primary Education), Jizzakh State Pedagogical University, UZB

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTETUTINING VILOYATDAGI UMUMTA'LIM MAKtablARI BILAN HAMKORLIKNING SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARINI ANIQLASH

KALIT SO'ZLAR:

Maktab va oliy ta'limga muassasalari hamkorlik, ta'limga tarbiya va ilm-fan sohalari, integratsiya

ANNOTATSIYA

Davlatimiz rahbarining shu yil 6 noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'limga tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni ta'limga sohasidagi keng ko'lamli islohotlarni yangi bosqichga ko'tardi. Ushbu hujjat, ayniqsa, maktab va oliy ta'limga muassasalari hamkorligini rivojlantirish, ular o'rtaqidagi integratsiyani yanada mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Darhaqiqat, bugungi kunda umumta'limga mакtablarida o'quvchilarga berilayotgan ta'limga tarbiya, pedagoglarga bo'lgan hurmat va e'tibor tobora yuksalib bormoqda. Ustoz-murabbiylarning jamiyatdagi o'rnini mustahkamlash, iste'dodli o'quvchilarni kashf etish, ularni o'zlari qiziqqan hamda orzu qilgan kasbga yo'naltirish ta'limga sohasining muhim vazifasiga aylandi.

Jizzax davlat pedagogika universiteti akademik litseyi va universitet tassarufidagi mакtablar hamkorligida O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus ta'limga Vazirligining 30-aprel 2022-yil № 96 sonli buyrug'i bilan tashkil etilgan. Akademik litsey va mакtablarida 4 ta o'qitish yo'nalishi bo'yicha o'quv mashg'ulotlari olib boriladi va 89 nafar malakali o'qituvchilar o'quvchilarga ta'limga berib kelmoqda. Jizzax viloyatidagi oliy o'quv yurtlarning turdosh kafedralari bilan hamkorlik shartnomalari imzolangan bo'lib, litseyda „Tabiiy fanlar“, „Xorijiy tillar“, „Aniq fanlar“ va „Ijtimoiy gumanitar fanlar“ kafedralarining filiallari va universitet tassarufidagi mакtablarda ham universitetga qabul jarayonlari kabi fanlar tashkil etilgan.

Ta'limga muassasalarida o'quvchi-yoshlarning kamol topishi hamda bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishlarida Prezidentimiz ilgari surgan beshta muhim tashabbus ulkan ahamiyat kasb etyapti. Shu bois, otaliqqa olingan mакtablarda "Beshta muhim tashabbus kuni" deb nomlangan madaniy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etdi.

Bundan tashqari o'rganishlarimiz, bildirilgan taklif va mulohazalar asosida mакtablar bilan hamkorlik memorandumi imzolandi. Memorandumda o'zaro hamkorlikda umumta'limga mакtablarida ta'limga sifatini oshirish, fan to'garaklari tashkil etish, o'quvchilarning ixtisoslashgan mакtablar, professional ta'limga dargohlari, oliy ta'limga muassasalariga kirishi salmog'ini oshirish, asosiy fanlarni yaxshi o'zlashtirishlari uchun imkoniyat va shart-sharoit yaratish, umumta'limga mакtabida beshta muhim tashabbus doirasida musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirish va iste'dodini yuzaga chiqarish, jismoniy chiniqtirish, sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari, komp'yuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni

tashkil etish, o'quvchi qizlarni kasb-hunarga o'rgatish kabi bir qator muhim vazifalar belgilandi.

Bundan tashqari, institut professor-o'qituvchilari umumta'lim mакtablaridagi moslashtirilgan kutubxonani zamonaviy holatga keltirish bo'yicha amaliy yordam berishi, dizayn va haykaltaroshlik kafedralari professor-o'qituvchilari hamda bitiruvchi kurs talabalarini jalb etib, maktablar hududining landshaft dizayni loyihasini yaratish rejalashtirilgan.

Institut vakillari umumta'lim maktablarida dars jarayonlarini kuzatib, tahlil qilib boradi, uning natijalariga muvofiq mакtab o'qituvchilarida aniqlangan kamchilik va bo'shliqlarni to'ldirish, metodik yordam berish maqsadida mahorat darslari, seminar-treninglar tashkil etiladi, rasm va chizmachilik sinfxonalarini ko'rdezgazmali qurollar bilan jihozlashda ko'maklashiladi, institutda mакtab o'qituvchi va o'quvchilari uchun "Ochiq eshiklar kuni" o'tkaziladi.

Bugun mamlakatimizda ta'lrim sohasida, xususan, maktablarimizni bugungi kun talablari asosida tashkil etishda tub o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonga oliy ta'lrim muassasalarining ham jalb etilayot gani beziz emas. Chunki har ikki ta'lrim muassasasi bir-biri bilan uzviy bog'liq: bir-birini to'ldiradi va rivojlanadiradi. Ularni biridan ikkinchisini ayro tasavvur etib bo'lmaydi.

Oliy ta'lrim muassasasi bilan hamkorlikda ishlagan, ularning qanday va nima bilan "nafas olayotganini" anglagan mакtab pedagoglari ham o'quvchilarga bilim berish jarayonida ushbu omillarni, albatta, inobatga oladi. O'quvchi-yoshlarda esa maktabdalik paytidayoq oliy ta'lrim haqida muayyan tasavvur paydo bo'ladi, qiziqish uyg'onadi, o'z kelajagini yanada yorqinroq tasavvur eta boshlaydi.

Ushbu hamkorlikning yana bir muhim jihat shundaki, endi maktablar erishayotgan yutuqlar, yo'l qo'yayotgan kamchiliklarga har ikki tomon ham birdek mas'ul. Bu, o'z navbatida, o'zaro hamkorlik samaradorligini yanada oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Maktablar bilan hamkorlikni yanada samarali tashkil etish va ularning rivojlanishiga hissa qo'shish institutimizning ustuvor vazifalaridan biri sifatida belgilandi. Oliy ta'lrim muassasasi va maktablar o'rtasida yo'lga qo'yilgan bunday hamkorlik yaqin keljakda o'z mevasini berishi shubhasiz.